

TA'LIMDA TEXNOLOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA ULARNI
BOSHQARISH

Umarov Xusan Abduraximovich

Ilmiy raxbar: v.b. dotsent, p.f.f.d., PhD

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Texnologik
ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri*

Yo'ldashev Alimardon Yursinaliyevich

Iqtidorli talaba:

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Texnologik
ta'lim yo'nalishi talabasi.*

Anotatsiya: *Mazkur maqolada texnologik jarayonlarni tashkil etish va uni boshqaruv omillari sifatida texnologiya fani o'qituvchisi metodik kompetentlikka ega bo'lishi, dars mavzusini bayon etishda innovatsion yondashuvlarga asoslanishi, shuningdek, zamonaviy talablar asosida o'quvchilar guruhi faoliyatini boshqarish kompetentligini yuqori darajaga ko'tara olish salohiyatiga ega bo'lishi masalalari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim-tarbiya jarayoni, texnologik jarayon, boshqaruv mehanizmi, boshqaruv kompetentligi, boshqaruv faoliyati.*

Yangilanyotgan kishilik jamiyatida, chuqur integratsiyalashgan iqtisodiy makonda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ahborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan bugungi kunda yoshlarimiz kelajak ta'lim tizimiga ta'mal toshini qo'yimoqdalar. Bu esa yangidan shakllanayotgan "Yangi O'zbekiston" davlatini yanada ravnoq topishini ta'minlaydi.

Ushbu yuksak vazifani bajarish jarayonini muvoffaqiyat bilan amalga oshirish yoshlardan puhta tayyorgarlik, bilim, savoya ijodkorlik va iqtidorni talab qiladi. Bosayotgan har bir qadamimiz shag'dam, ishonchli, zafarli bo'lishi lozim, buning uchun esa zamon bilan hamnafas, bozor iqtisodiyoti bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'llarini biladigan, unga amal qiladigan, yetuk bilimdon, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash lozim bo'ladi.

Hozirgi kunda Respublikamiz xalq ta'limi tizimini rivojlangan davlatlar darajada takomillashtirish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad - yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish sifati va samaradoligini oshirish, ularni o'z yurtini sodiq farzandi etib tarbiyalash va mustaxkam bilim berish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratilmoqda. Ushbu vazifalar pedagog kadrlarni kasbiy bilim, ko'nikma va

malakalarini bugungi kun talabidan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya jarayonini kengaytirish, chuqurlashtirish, yangilash, zamonaviylashtirish orqali o'quv jarayonini sifati va samaradorligini oshirishga, kompetentligini yanada yuqori darajaga ko'tarishga qaratilgan.

Mirziyoev SH.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga kuramiz" asarida XIX asrda ma'rifatli dunyo oqillari Buxoriy, Farg'oniy, Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino va Ulug'beklarni qanchalik izzat-ikrom qilgan bo'lsa, XXI asrda ham xalqimiz, millatimizga nisbatan ana shunday extromni qo'lga kiritishimiz kerak. O'sha davrda ulug' ajdodlarimiz asos solgan va olamga dong taratgan ilmiy maktablarni zamonaviy shaklda qayta tiklashimiz lozim. Bunga esa ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish orqali erishish mumkin"deb, fikrlarini bayon etganlar.[1-4]

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2017 yil 3 iyundagi 190-sonli "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o'quv dasturlarini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi buyrug'iga asosan 2017-2018 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi rejalashtirildi. Jumladan, ushbu buyruqqa ko'ra umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari 2017-2018 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish quyidagi tartibda amalga ko'zda tutilgan.[5]

- ❖ 1-bosqich: 2017-2018 o'quv yilidan 1-, 4-, 6-, 7-10-sinflarda;
- ❖ 2-bosqich: 2018-2019 o'quv yilidan 2-, 3-, 8-, 9-11-sinflarda;
- ❖ 3-bosqich: 2019-2020 o'quv yilidan 5-sinflarda amalga oshirildi.

Bu esa darsliklar va turli hil adabiyotlardan foydalangan holda fanlarni o'qitishda innovatsion xarakterga ega bo'lgan muammolarni innovatsion yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish va shu asosda dars jarayonini na'munali tashkil etishni talab etadi.[6]

Yuqorida zikr etilgan vazifalarni bajarishda texnologiya fanida texnologik jarayonlarni tashkil etish masalasi muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa, bunda mavzuga mos yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish va ahborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan dars jarayonida foydalanish yaxshi natijalar bermoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilimi va samaradorligini oshirishda o'qitish jarayonida innovatsion ta'lim texnologilaridan foydalanish muhim o'rin tutadi.

Jahon hamjamiyatining asosiy maqsadini amalga oshirish, kelajak yosh avlodni tarbiyalash, ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uni boshqaruv mehanizmini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan dars jarayonidagi boshqaruv faoliyati kompetentligi darajasi nuqtai nazaridan yondashish zarurati tug'ilmoqda.[7]

Bu esa fan o'qituvchisidan, hususan, texnologiya fani o'qituvchisidan yanada yuksak mas'uliyat, o'z ustida mustaqil ishlash va doimiy malakasini oshirib borish bilan texnologik jarayonlarni tashkil etish muammolarini hal etish va o'zining kompetentlilik darajasini muntazam ko'tarib borishini taqazo etadi.

Ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqaruv mehanizmini takomillashtirish mavzusi yuzasidan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari, ularni tushintirish mehanizmlari taklif etilgan bo'lsalarda texnologiya fanini, hususan, texnologik jarayonlarni tashkil etish va boshqaruv mehanizmini takomillashtirish jarayoni shu kun talabi darajasida o'rganilmagan.[8-10]

SHuningdek, hozirgi kunda hech bir mamlakatning o'quv ta'lim-tarbiya muassasasida rahbar hodim tayyorlanmaydi, insonning rahbarlik salohiyati o'zining ish faoliyatida jamoada ishlash jarayonida shakllanib boradi. SHu bois fan o'qituvchisi boshqaruv faoliyatining kompetentlik darajasini yanada yuksaltirishning eng muqobil yo'li sifatida qaralmoqda.

Mazkur, muqobil yo'l malaka oshirish tizimi orqali bevosita amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. CHunki, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari bilan muntazam va muttasil aloqada bo'lgan ta'lim muassasasi sifatida so'ngi yillardagi fan texnika yangiliklari bilan tanishtirib borish va maktabda o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan murakkab mavzular yuzasidan uslubiy maslahatlar tashkil etish jarayonlari kommunikativ munosabatlar orqali o'z yechimini topmoqda.[11-14]

Mazkur muammolarni ijobiy yechimini topish uchun texnologiya fani o'qituvchisining texnologik jarayonlarni tashkil etishni bilishi va boshqaruv mehanizmini takomillashtirish omillarini izlab topish yo'nalishida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishi, pedagogik kompetentlilikka ega bo'lishi, dars mavzusini bayon etishda innovatsion yondashuvlarga asoslanishi, shuningdek, zamonaviy talablar asosida o'quvchilar guruhi faoliyatini boshqarish kompetentligini yuqori darajaga ko'tara olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Yuqoridagi fikrlardan quyidagicha hulosaga kelish mumkin, ya'ni texnologiya fani o'qituvchisi texnologik jarayonlarini tashkil etish va uni boshqarish yo'l-yo'riqlarini bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi unsurlarni aniqlay olishi va ularni bartaraf etish yo'llarini bilishi, modullarni integratsiyalash va ularning o'ziga hos hususiyatlarini izohlay olishi, o'quvchilar bilim darajasini yanada yuqoriga ko'tarishda o'quvchilarning tayanch kompetentsiyalari va fanga oid umumiy kompetentsiyalarning mazmun-mohiyatini dars jarayonida tadbiq eta olishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy urta va urta maxsus, kasb-xunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiklash to’g’risida”gi 187-sonli Qarori

2.Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 15 martdagi Umumiy urta ta’lim tug’risida Nizomni tasdiklash to’g’risida”gi 140-sonli Karori.

3.Mirziyoev SH.M. Tanqidiy taxlil, kat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyatining kundalik koidasi bulishi kerak. - Toshkent: “Uzbekiston”, 2017-yil 102bet.

4.Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga kuramiz. - Toshkent: “Uzbekiston”, 2017-yil 488 bet.

5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2017 yil 3 iyundagi 190-sonli “Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o'quv dasturlarini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to'g'risida”gi buyrug'i

6. Axmedov M.M,Teshaboev Z.A.,Rajapov V.T. O'qitish jarayonida tashkiliy va innovatsion sinf-dars shakllaridan foydalanish. FVPHQTMOH markazi. Uslubiy tavsiyanoma. 2021 yil 7 aprel 9-sonli bayonnoma.

7. Ahmedov M.M, Teshaboev Z.A. O'qituvchilarning dars jarayonida boshqaruv faoliyati kompetentligini shakllantirish. Andijon viloyati TXQTMOMX. “Umumiy o'ta ta'lim maktablarining sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy – metodik hujjatlari: xalqaro tajribalar” mavzusidagi respublika ONLAYN ilmiy-amaliy anjumani Andijon shaxri. 2021 yil 15 oktyabr

8.Ahmedov M.M.Teshaboev Z.A. Forming the competence of management activities in the course of teaching teachers. Transformatsiya suspilnix nauk: sotsialno-ekonomichniy, lingvistichniy, politichniy ta itvimiri.Materiali ii mijnarodnoï naukovoï konferentsii.Xarkiv, Ykraïna 51-54-str. ISBN 978-617-7991-88-4 DOI 10.36074/mcnd-22.10.2021.

9.Axmedov M.M.,Teshaboev Z.A. /Ta'lim tizimida islohatlar. // Mejdunarodniy nauchniy jurnal “Graal nauki” № 4 (Travenb, 9 aprel 2021) Venetsiya, Italiya S.475-477.

10. Axmedov M.M.,Teshaboev Z.A. /He hed an innovative character in the teaching process «Distance education» is an innovative course format. // LOGOΣ LOGOΣ Multidisziplinare forschung: perspektiven, problem und muste. 9. April 2021.Wien, Reepublik Osterreich.

11. Axmedov M.M., Safarova G.M./Pedagogical skill is the product of the individual characteristics of the teacher.// Vol. 7 No. 02 (2021): JOURNALNX s. 237-240.

12. Axmedov M.M. Safarova G.M. /The american journal of applied sciences SJIF-5.634 DOI-10.37547//tajas.Vol.3. Issue01, 2021 s. 54-57

13. Axmedov M.M., Safarova G.M. /Fundamentals Of Development Of Creative Abilities Of Students In Professional Trainin. // The american journal of applied sciences SJIF-5.634 DOI-10.37547//tajas.Vol. 3 Issue 01, 2021.

14. Axmedov M.M., Safarova G.M./ The Concept Of "Creative", Its Importance In Education.// International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR) 2021, s. 116-117